

**AMIR TEMUR O'GITLARINING TARBIYAVIY AHAMIYATI**

**Ro'zimurodov Jasurbek tohir ug'li**

DTPI Pedagogika fakulteti

Jismoniy madaniyat talabasi

[Akhmedovdiyorbek7@gmail.com](mailto:Akhmedovdiyorbek7@gmail.com)

**ANNOTATSIYA:**

Amir Temur o'gitlarining tarbiyaviy ahamiyati tahlil etiladi. Amir Temur, o'z davrining buyuk sarkardasi va davlat arbobi sifatida, o'zining hayoti, faoliyati va o'gitlari orqali nafaqat harbiy, balki ma'naviy va axloqiy yutuqlarni yaratgan. Uning tarbiyaviy o'gitlari bugungi kunda ham yosh avlod uchun misol bo'lib xizmat qiladi. Maqola Amir Temur o'gitlarining asosiy tamoyillari, ularning o'ziga xosligi va zamonamizdagi ahamiyatini ko'rsatishga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** Amir Temur, Tarbiyat, Axloqiy qadriyatlar, O'gitlar, Yosh avlod

**АБСТРАКТНЫЙ:**

Анализируется воспитательное значение учения Амира Темура. Амир Темур, как великий полководец и государственный деятель своего времени, своей жизнью, деятельностью и учением создал не только военные, но и духовно-нравственные достижения. Его просветительские учения и сегодня служат примером для молодого поколения. Цель статьи – показать основные принципы учения Амира Темура, их уникальность и значение в наше время.

**Ключевые слова:** Амир Темур, Образование, Моральные ценности, Образование, Молодое поколение

**ABSTRACT:**

The educational significance of Amir Temur's teachings is analyzed. Amir Temur, as a great general and statesman of his time, created not only military, but also spiritual and moral achievements through his life, activities and teachings. His educational teachings serve as an example for the younger generation even today. The article aims to show the main principles of Amir Temur's teachings, their uniqueness and importance in our time.

**Key words:** Amir Temur, Education, Moral values, Education, Young generation

**Kirish**

Tarixdan bizga ma'lumki, Movarounnahrda qariyb bir yarim asr davomida Movarounnahr mo'g'ul istilochilari tomonidan vayron etildi. Fan - madaniyat, ma'rifatga juda katta putur yetkazildi. Xonavayron bo'lgan Movarounnahr xalqi XIV asrning boshlariga kelib Mo'g'ul istilochilari zulmidan qutila boshladi. Movarounnahrda kuchli davlat tuzishga bo'lgan intilish g'olib keldi. Mo'g'ul istilochilariga qarshi Buxoroda xalq Mahmud Torobiy boshchiligida qo'zg'aldi, Samarqand va Xurosonda esa sarbadorlar qo'zg'olonlari ro'y berdi. Natijada sarbadorlar uzoq muddat hatto hokimiyatni ham boshqarib turdilar. XIV asrning o'rtalarida Markaziy Osiyoda mayda feodal hokimlar o'rtasida nizo kuchaydi, iqtisodiy qiyinchiliklar yuz berdi, siyosatda qat'iyatsizlik avj oldi. Hokimlar o'rtasida nizolar kuchayishi natijasida mamlakat 10 ta mustaqil beklik va amirliklarga bo'linib ketdi. Beklar va amirlar o'rtasida o'zaro kurash kuchaydi, mamlakat urush va talon-tarojlar iskanjasida qoldi.

Shunday og'ir bir parokandalik vaziyatda el-yurtning og'ir yukini Amir Temur o'z yelkasiga oldi va qariyb 10 yil (1360-1370) davom etgan og'ir kurashdan so'ng mamlakatni mo'g'ullar istibdodidan xalos qildi. 1370-1380 yillar mobaynida Amir Temur say'i harakatlari samarasi natijasida beklar va amirlar o'rtasida nizolarga barham berildi va Movarounnahrdagi tarqoq, amirliklar markazlashgan yagona feodal davlatning bayrog'i ostida birlashtirildi.

Shunday qilib, XIV asrning ikkinchi yarmida Movarounnahrning feodal tarqoqligiga barham berildi, mamlakat mo'g'ul bosqinchilaridan tozalandi. XIV asrning oxiri XV asrlarda Markaziy Osiyoda feodal munosabatlar yanada rivoj topa boshladi. Soxibqiron Temur va dastlabki temuriylar hukmronlik qilgan davr Movarounnahr tarixida alohida o'rin egalladi.

Markazlashgan buyuk Temur davlatining barpo etilishi bilan Movarounnahrda yana fan va madaniyat, maorif qaytadan ravnak topa boshladi. Shuning uchun ham tarixda XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asr o'rta Osiyoda Sharq uyg'onish davrining ikkinchi bosqichi deyilishi bejiz emas... chunki, bu davrga kelib, Markaziy Osiyoda iktisodiyot, fan va madaniyat gurkirab rivojlandi.

Amir Temur hukmronligi davrida jahonning ko'plab shaharlaridan Samarqandga hunarmandlar, san'atkorlar, muhandislar, olimu-fozillar olib kelindi va ularning tajribalaridan ilm-ma'rifat, madaniyat va qurilish jabxalarida keng foydalanildi.

Samarqand va Hirotda madrasalar, rasadxonalar, bog'urog'lar, madaniyat o'chog'lari barpo etildi. Shu davrga kelib tibbiyot ilmini o'rganishga qiziqish yanada kuchaydi. Riyoziyot, falakiyot, jo'g'rofiya, tarix, adabiyot, falsafa, xuquqiy, targ'ibot, tarbiyashunoslikka oid bir qator ajoyib va muhim asarlar yaratildi. Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Umar Hayyom, Sa'diy, Al-Xorazmiy, AlFarg'oniy, Imom Buxoriy, At-Termiziy meroslarini, shuningdek, yunon-rim madaniyatini o'rganishga harakat kuchaydi. Mamlakatda davlatni boshqarishni mukammallashtirish, qurilish, obodonchilik, sug'orish ishlariga, shaharlar o'rtasidagi savdo yo'llarini kengaytirishga katta e'tibor berildi. Soxibqiron Temur va temuriylar davrida - she'riyat, mantiq, falsafa, tarix, huquq, astronomiya, matematika, nafosat, tilshunoslik, lug'atshunoslik, musiqashunoslik, tarbiyashunoslik, me'morshunoslik, tijorat - tadbirkorlik, tarjimonlik, hattotlik, jo'g'rofiya va elshunoslik kabi boshqa o'nlab dunyoviy bilimlarni o'rganish, shu bilimlar asosida asarlar yaratish yo'lga qo'yildi. Amir Temur hukmronligi davrida o'rnatilgan tinchlik mamlakatda madaniyat, ilm-fan, xalq og'zaki ijodi, adabiyot va san'atning rivojida, madrasalarda ta'lim-tarbiyaning yuqori saviyada bo'lishida muhim omil bo'ldi.

Uzoq yillar mobaynida mustamlaka iskanjasida kun kechirgan xalqimiz o'z vatandoshini qadrlash, uning tarixiy mavqeyini munosib o'rniga qo'yish imkonidan mahrum edi.

Mustaqilligimiz sharofati ila bunday noma'qulchiliklarga chek qo'yildi. Tarixni xolisona o'rganish, tarixni soxtalashtirmay, uning sarhadlarini buzmay, bor haqiqatni oydinlashtirib ma'lumot berish imkoniyatlariga ega bo'ldik... Darhaqiqat o'tmishga nazar tashlaydigan bo'lsak, Amir Temur nomi tariximiz sahifalaridan qora bo'yoq bilan o'chirildi, unutilishga mahkum etildi. Maqsad xalqimizning yuragidan milliy ong, milliy g'urur tuyg'usini yo'qotish, uni qaramlikka, tobelikka ko'ndirish edi. Lekin o'zbek xalqi o'z ajdodlarini, o'z bahodirlarini unutmadi, hamisha yuragida, qalb to'rida saqladi.

Muhammad Tarag'ay Bahodir o'g'li Amir Temur yoshlik chog'idan mard, dovyurak, g'ururli, o'tkir zehn va aklu idrok egasi bo'lib o'sdi. Turli dunyoviy ilmlarni, harbiy san'atni egalladi. Qur'oni Karimni yod oldi, hadis ilmini o'rgandi. Iymon-e'tiqodli, halol-pok inson bo'lib yetishdi».

Darhaqiqat, yurtboshimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, insof-iymon tuyg'usi, diyonat mezonini Amir Temur hayotining mazmunini tashkil etadi. Olamning qariyb yarmiga jahongir ersa-da, u kuch-kudrat zo'rlik, zo'ravonlik emas, adolatda ekanini teran anglatdi. Shu bois bo'lsa kerakki, o'tmishda jahon ilm ahli, mashhur muarrixlar o'z asarlarida Amir Temur ismiga Ko'ragon, Soxibqiron, Qutbiddin, Abulmansur kabi unvonlarni qo'shib, uni e'zozlab, ulug'lab, xikoyat, rivoyat va xotiralar bittanlar. «Tarixiy manbalarda zikr etilishicha, Amir Temur xushfe'llik, adolat, saxovat, lutfi-karam, islom axloq-odob qoidalariga rioya va amal qilish, insonlarni jamiyatda tutgan o'rinlari qanday bo'lishidan qat'iy nazar barobar hurmat qilish, ular bilan samimiy muomalada bo'lish, berilgan va'da va zimmaga olingan ahdomalarni vaqtida bajarish kabi qator yuksak insoniy fazilatlarga ega bo'lgan. U yoshligidan boshlab o'z oldiga ona yurtni mo'g'ul bosqinchilaridan ozod qilish maqsadini qo'ydi, yer yuzida buyuk saltanat soxibi sifatida el va elatlarning boshini qovushtirdi. Mamlakat qudratini har sohada yuksaklikka ko'tarib, dunyoga mashhur qildi.

Buyuk bobokalonimiz har vaqt: «Insonparvarlik va mardlikni Alloh ham, xalq ham ulug'laydi», degan hikmatli so'zni takrorlashni xush ko'rgan va hayotda o'zlari bunga amal qilganlar. Dastavval shuni aytish kerakki, Amir Temur, odobaxloq, iymon-e'tiqod, ta'lim-tarbiya sohasida o'zi yuksaklikka, mukammallikka erishgan siymolardan biridir. Bunga ishonch hosil qilish uchun uning o'zi tomonidan yaratilgan odob-axloqqa oid dasturlar, o'gitlar, pand-nasihatlarini, shuningdek Sohibqiron haqidagi tarixiy asarlarni ko'zdan kechirish kifoya.

Axloq va odobga oid o'git-nasihatlar.

„Buxoro tarixi“ kitobining muallifi Narshaxiyning izdoshi- Sharofiddin Ali Yazdiyning „Zafarnoma“ asarida yozilishicha Amir Temurning o'ziga xos xususiyatlaridan biri davlat va mamlakat fuqarosining g'amxo'ri bo'lganligidir. Uning qoidasi „Rosti-durusti“ edi. „Haqiqat-sihat-salomatlik, haqiqat-tartib, haqiqat-adolat demakdir“.

1. Adolat va adolatsiz haqida:

„Har mamlakatda adolat eshigini ochdim, zulmu sitam yo'lini to'sdim“; „Qaysi mamlakatni zabt etgan yoki qo'shib olgan bo'lsam, o'sha yerni obro' e'tiborli kishilarini aziz tutdim: sayyidlari, ulamolari, fuzalo va mushoyixlariga ta'zim bajo

keltirdim va hurmatladim, maoshlrini belgiladim, o'sha viloyatni ulug'larini og'a-inilarimdek, yoshlari va bolalarini esa o'z farzandlarimdek ko'rdim."

2. So'z va ishning birligi: Amir Temur „Belda kamar va tilde sano” ya'ni ish va so'z bir bo'lsin deyishni hush ko'rardi. U o'zi yozgan va aytganlariga hayotida qattiq amal qilgan. U har doim qo'lidan kelmaydigan vadani bermas edi.

Do'st va dushmanlik haqida. Amir Temur do'stga sodiq edi. Sohibqiron Amir Temur o'zining „Tuzuklar”ida quyidagilarni yozgan:

„Do'stlik –sinovda chiniqadi”;

„Do'stu-dushman bilan murosayu madora qildim”;

„Shijoatli kishilarni do'st tut, chunki Tangri taolo jasur kishilarni ardoqlaydi.”;

„Aqlli dushman, johilu nodon do'stdan yaxshiroqdir”

„Farzandlar, qarindodlar, oshna og'ayni, qo'shinlar va men bilan bir vaqtlar do'stlik qilgan barcha odamlarni davlatu ne'mat martabasiga erishganimda unutmadim, haqlarini ado etdim”.

Amir Temur o'z faoliyatida naqshbandiylar sulolasining va pirlarining do'st haqidagi ta'limotlariga qattiq amal qilgan. U saltanat taxtiga o'tirgach do'st va dushman bilan muomalada bir tekis yo'l tutgan. So'z va shirinsuhanlik.

Amir Temur hech kimga g'azab bilan qattiq muomla qilmagan. O'z „Tuzuklari”da g'azab va qattiqqo'llik bilan qilingan muomalani Tangri taoloni g'azabiga duchor bo'lish, o'z holini tang qilishdir, deb yozgan.

Shuning uchun : „ Shirin so'z aytib g'animni imonga kiritgin”; „Til qilichdan o'tkir”;

„Bir kalima shirin so'z qilichni qinga kitar” deb ta'kidlaydi. Bu so'nggi o'git o'z tajribasida sinalgan.

„Amir Temur o'gitlari” risolasida haqqniy ta'kidlanganidek, Amir Temurning tarix oldidagi hizmati benihoya katta.

### Foydalangan adabiyotlar:

1. Amir Temur. (2008). Amir Temur va uning o'gitlari. Tashkent: Sharq.
2. Murodova, D. (2020). Amir Temur tarbiyasi: tarixiy tajribalar va zamonaviy ahamiyati. Tashkent: Fan.

3. Usmonov, R. (2015). Hozirgi O'zbekistonda Amir Temur o'gitlarining roli. Tashkent: O'zbekiston Milliy Universiteti.
4. Abdullayeva, G. (2019). Amir Temur va tarbiya: o'rganishdan amaliyotga. Tashkent: O'zbekistonda Ta'lim.
5. <https://muhaz.org/amir-temur-ogitlarining-tarbiyaviy-ahamiyati.html?page=2>